1.malaka oshirishga kelgan tasviriy san`at va chizmachilik fani o'qutuvchilarini qayta tayyorlash, malakasini oshirishda tasviriy san`at va chizmachilik fani metodikasini o'qitish alohida o'rin egallaydi. Chunki, tinglovchi kursantlar o'qitish va tarbiyalash metodikalarini takomillashtirib bermasdan turib darslarni zamon talablari asosida olib bora olmaydi. Shuningdek, kurs tinglovchilari o'rganishi uchun kerakli manba, adabiyotlar nihoyatda kam va etarli emas. Ayniqsa, tinglovchilar tamonidan dars mashg`ulotlarini olib borishlariga yordam beradigan manbalarni o'zlashtirib oladilar. Shuning bilan barcha fan yangiliklari o'rni qoplanadi.

2. « Ta`lim to'g`risida», shu qonun va « Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g`risida»gi O'z. Res. Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining « O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta`limni tashkil etish to'g`risida» 1998 yil 13 maydagi 203- son qarorini bajarilishini ta`minlash yuzasidan ko'rilgan tadbirlar, tasviriy san`at va chizmachilik fanlari o'qitilishini ham tubdan yaxshilash, isloh qilishni vazifa qilib qo'ydi.1

Tasviriy san`at va chizmachilik fani ya`ni ta`limning maqsadi o'quvchilarda badiy , ahloqiy, texnik madaniyatni shakllantirishga yordam qiladi. Fan mazmunan tasviriy, dekorativ amaliy, memorchilik kabi san`at turlarini o'z ichiga oladi.

Chizmachilikdan o'quvchilarga murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga, kompyuter yordamida oddiy chizmalarni yasashga o'rgatishdan iborat.2

Tasviriy san`at va chizmachilik fani ta`lim va tarbiya birligi muhim, bu fanning jihati hisoblanadi. Bugungi kunda hayotimiz turli jabhalarda o'zgarib

---

[1] Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. 4-махсус сон, 6- махсус сон.

[2] « Таълим тўғрисида» қонун, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури2, Ўз.Рес.Ваз.Маҳкамасининг IX- сесияси, 1997 йил 29- августь.

bormoqda. Hozirgi zamonoviy ilg`or ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`naviy hayotimizda aniqlikka intilish, yangilik lardan xabardaor bo'lish, tariximizni, o'tmishimizni, buyuk ajdodlarimizni, ularning fikr- g`oyalarini bilmog`imiz lozim.3

Viloyar Kollejdalaridan keladigan tasviriy san`atva chizmachilik o'qutuvchilari fanning maqsadini ham vazifalarini ham DTSda ko'rsatilganidek ajrata oladi. ammo o'quvchilarga shu fanlarni yanada chuqurroq bilim berishga, grafik savodxonligini oshirishga doimo ham kerakli e`tibor beravermaydilar. SHuning natijasida o'quvchilarning bilim darajasi, grafik savodi DTS talablaridan doimo orqada qolib, ta`lim va tarbiya birligi saqlanmay qolmoqda.

Tasviriy san`at fanidan o'quvchilar savodxonligi bugun jahon madaniyarining eng yuksak namunalarini ilg`ay oladigan bo'lishlari lozim, bunga avvalo o'qutuvchining o'zi tayyor bo'lmog`i kerak. Chizmachilik fanida ham ilg`or keyingi terminologiyalarning kirib kelishi ko'proq yangi materiallardan xabardor bo'lishni ta`lab etadi.

Tasviriy san`at va chizmachilik fanlari deyarli Kollejdada o'qitiladigan barcha fanlar bilan bog`langan holda olib boriladi. Bu fanni o'zlashtirishga agar o'qutuvchi to'g`ri metodikadan foydalansa samarali ta`sir ko'rsatadi.

Har qanday fan ta`lim-tarbiya birligini ta`minlab berilishini talab etadi. Dunyoda biron bir predmet yo'qki bir-birisiz yolg`iz rivojlana olsa. Tasviriy san`at fikr doirasini, chamalashni, hajmni, rangni o'rgatsa; Chizmachilik aniq o'lchamlar asosida o'quvchi fazoviy tasavvurini kengaytiradi, o'quvchilarda ahloqiy, estetik, mehnat, ekologik va jismoniy tarbiyani amalga oshirishga muhim rol o'ynaydi.

Kollejda dasturidagi tasviriy san`at faning ta`limiy xarakterdagi vazifalari qatoriga quydagilarni kiritish mumkin.

O'quvchilarga realistik rasm chizish asoslari haqida bilim berish;

O'quvchilarga idrok etish (san`atni idrok etish); (borliqni idrok etish)

Narsaning o'ziga qarab rasmni chizish;

4. Kompozitsion faoliyat;

[3] Мустақиллик:Изохли илмий - оммабоп луғат. Муаллифлар: М. Аббдуллаева, Г. Абдураззоқова ва бошқ.; А. Жалалов ва Қ. Ҳоназаров умумий таҳририда /.-Т.: «Шарқ», 1998-320 б.

Haykaltaroshlik asoslari bilan tanishtirish, tasviriy san`atning barcha o'quv mashg`ulotlarini bolalarda ijodiy qobiliyat, estetik did, tasavvurlarini o'stirishga qaratish;

O'quvchilarni tasviriy va dekorativ-amaliy san`at namunalari bilan tanishtirib borib, ularda bu san`atning o'ziga xos xususiyatlari to'g`risidagi tushunchalarning o'sishiga yordam berish;

O'quvchilarda asarlarni emotsional idrok etish xissini o'stirish;

San`atga, fanga qiziqish va muhabbat ruhida tarbiyalash;

Turli-tuman ijtimoiy-foydali faoliyatlarda estetik talablarni hisobga olgan holda ijodiy yondoshish ko'nikmasini hosil qilish;

Boshqa o'quv fanlari qatori texnik ijodiyotda ham rasmlardan foydalanishga o'rgatib borish;

Chizmachilik fani DTS1 talablari bo'yicha maqsad-vazifalarga erishishda ta`lim-tarbiya nazariyalari kontseptsiyasi bo'yicha ko'rilgan masalalarga ijodiy yondoshuvni o'rganib o'z ish faolitida qo'llab borishdan iborat.

Chunki, chizmachilik fanida fazoviy tasavvur, proektsiyalash metodlari, o'lcham qo'yish, tutashmalar,aksonometrik proektsiyalar, yaqqol tasvirlar, eskizlar,topografik va pnematik sxemalar, reja, fasad kabi qurilish chizmalari haqida ham tushunchalarni chuqurlashtirishlari lozim.

Chizmachilik fani nafaqat dizayn san`atini balki u estetik tarbiya masalalarini, milliy mafkura, g`oyaviy dunyoqarashni ham o'zlashtirib olishga yordam beradi.

Fanning mazmuni kengayib bormoqda, tashqi informatsiyalar ko'paymoqda, o'quvchilarning ham dunyoqarashi kengayib, axborotlar zapasi oshmoqda. SHunday bo'lsada tasviriy san`at va chizmachilik fanlari bo'yicha ta`lim-tarbiya jarayonning u yoki bu tamonini takomillashtirish sohasida ilg`or o'qituvchilar ishini ma`lum darajada oshirish talablari rivojlvnib zamonoviy talablarga to'g`ri keladigan qilib shakllantirishdavr talabidir.

Rasm o'z nomi bilan qo'lda bajarilgan turli shakllarning qog`ozdagi tasviriga

---

[1] Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. 6-махсус сон. Ўз.Рес.Ҳалқ таълим вазирлигиниг ахбаротномаси. 1999 й. 55-100 бетлар.

aytamiz. Jismning shaklini va o'lchamlarini ko'rsatadigan tekislikdagi tasvir chizma deyiladi! Rasm ishlashda narsa qo'yilishi, tasavvurdan chizilishi mumkin. Hozir yangi DTSda va dasturida 5ta bo'limga bo'lgan holda rasm darsi o'rganilishi kerakligi aytiladi, ya`ni:

Borliqni idrok etish (1-4 sinflar);

Badiy ko'rish-yasash (1-4 sinflarda);

San`atshunoslik asoslari;

Naturaga qarab tasvirlash;

Kompozitsion faoliyat;

Shuni ham aytish kerakki, rasmlarning bugungi kundagi olami yanada rang-baranglashdi, turli realistik san`at oqimlariga endi ko'pgina yangi-yangi avval bizga yot bo'lgan yo'nalishlar ham o'z ta`sirini ko'rsatmoqda. Rasmlarni rushunish endi, fikrlash bilan ham to'la almashinmoqda deyish mumkin. Bolalar chizgan rasmida uning olami aks etishi hammamizga ma`lum narsa, lekin shu rasmni o'qituvchi tushunib etmasa-chi? Uni to'g`ri baholay olmasa nima bo'ladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki bolalarni qalban majruh bo'lib qolishiga olib kelinadi. Aslida tasviriy san`at «... o'tgan davr bilan hozirga davr o'rtasidagi to'siqni olib tashlash orqali ta`sir ko'rsatsa, ikkinchidan kishilarni tasviriy san`at orqali olayorgan tajribalari rassom tamonidan anglab etilgan va baholab bo'lingan bo'ladi, uchinchidan rassom tamonidan tamoshabinga berilayotgan shaxsiy tajriba muallif tamonidan tabaqalashtirilgan va umumlashtirilgan bo'ladi.»1. Chunki bola olami ham fikridagini rasmda ifoda etishidir.

Shunday ekan rasm ishlash qoidalarini bilish muhim ahamiyatga ega, avvalo chizilayorgan narsani yoki kompozitsiyani daftar varag`ida to'g`ri joylashtira olish. Barcha o'quv qurollarini maqsadga muvofiq tarzda ishga tayyorlash. bu qalamni ushlashdan tortib planshetda ishni yakuniga etkazgunga qadar bo'lgan vaqrlarni o'z ichiga oladi.

O'quv materiallaridan tashqari endi rasm chizish qoidalari alohida o'rin tutadi. Rang, soya, yorug`, perspektiva, koloriti va hokazolarni ham bajarilish

[1] Д. Эргашев. Тасвирий санъат машғулотларида ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш. Самарқанд-1999 й, 8-бет, 40 бет.

qoidasiga amal qilinmasa natija kutilgandek bo’lmaydi.

Chizma chizish qoidasi ham rasm qoidalari kabi bir-birini doimo to’ldirib boradi. Proektsiyalar, eskizlar, texnik rasmlar hammasi chizma rasm qurollarida ishlanadi. Chizma asboblari o’z ish usullari bilan rasmnikidan biroz farqlanadi ya`ni, chizg`ich, qalam chiqarilishi, gotovalnik, reysshina va hokazolar.

Barcha rasm va chizma qoidalariga amal qilinishi keyingi ishning bir maromda borishini to’la ta`minlaydi.

Tasviriy san`at va chizmachilik ta`limining inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda ulkandir. Chunki tasviriy san`at ham chizmachilik fani ham kishilar fazoviy tasavvurini kengaytirishda muhim rol o’ynaydi.

Chizmalarni bajarish, o’qish jarayonida bolalarning fazoviy tasavvuri va mantiqiy tafakkurini, texnikaviy ijodkorlikni, dizayn, loyihalash, bunyodkorlik sohasidagi bilimlarini rivojlantirib muhim bilimlar olishni shakllantiradi.

Kollejda chizmachilik ta`limining maqsadi o’quvchilarni murakkab bo’lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o’qishga va o’z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o’rgatishdan iborat. Agar o’quvchi grafik savodxon bo’lsa hayotda barcha chizmaga oid ishlarni tezda tushunish va bajarib berish imkoniyarlariga ega bo’ladi. Chunki biz texnikaviy axborotlar jarayonida rivojlanishdamiz. Har yili minglab texnik terminlar hayotimizga kirib kelmoqda. Faqatgina keyingi mustaqilligimiz yillarida O’zbekiston Respublikasida qanchadan-qancha zavod va fabrikalar qurilib yangi-yangi mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Bularni anglash va tushunib olishda tasviriy san`at va chizmachilik ta`limining ahamiyati kattadir.

Rasm solish ham o’qish, matematika, ona tili kabi o’qitiladigan mamlakag tez orada rivojlanib, eng oldindr boradigan bo’lar edi,- deb yozgan edi Deni Didro. Haqiqatdan ham tasviriy san`at va chizmachilik faninig inson hayotidagi ahamiyati juda katta. Chunki bola avvalo dunyoni rasmlardagi kabi idrok qiladi, ko’rgan narsasini qaytaradi ya`ni, psixologiyada amaliy tafakkur tushunchasi bo’yicha ushlab ko’rib, o’zi ijro etib o’rganadi. Hali yaratayotgan obrazlari abstrakt-mavhum holatda bo’lsada u qilgan ishdan estetik zavq oladi. borliqni o’zida aks

ettiradi.

Tasviriy san`at va chizmachilik fani ma`naviy-madaniyatning ham asosiy qismidir. U bolalarda, inson hayotida badiy madaniyarni uyg`un shakllanishiga xizmat qiladi. SHaxs uchun muhim bulgan sifatlarning rivojlanishiga samarali ta`sir ko'rsatadi. Borliq, go'zallik, dizayn estetikasi bu fanlarning asosini tashkil qiladi.

Tasviriy san`at darslarini bunday beshta guruhga bo'linishi uni tushunishni biroz engillashtiradi. Kollejda tasviriy san`at va chizmachilik darslarida o'quvchilar chizgan rasmlarni to'g`ri taxlil qila bilmaslik, bolalar ishiga noto'g`ri yondoshish bolalarning keyinchalik fandan sovub ketishiga olib keladi. Natijada keyinchalik umuman bu fanlar hayot faoliyatidan butunlay uzulib qoladi va san`at orqali ochilishi lozim bo'lishi, eng asosiy bilimlar ochilmay muzlaydi. Shuning uchun ham rasmni estetik idrok qilish bilan birga uni mazmunan tushunib etishga hamharakat qilinmog`i kerak bo'ladi. Rasmlarni avvalo qanday shakllardan, qanaqa rangda, kompozitsion echimi, hajmi, qadr-qimmati o'rganiladi. Keyin esa unga xulosa chiqarish uchun harakat qilinadi. O'qituvchi bola ishini o'rganar ekan eng kam bo'lsada uning yutug`ini topishga harakat qilmog`i kerak bo'ladi. «Muhim vazifa- O'zbekistondagi har bir insonni millati, tili, dinidan qat`iy nazar vatanparvarlik ruhida, qadimiy moddiy, ma`naviy madaniyatning maskanlaridan biri bo'lmish bu maskanning haqiqiy jonkuyarlari etib tarbiyalashdir.» Haqiqatdan ham buning uchun kishi barcha bo'layotgan voqealarni to'g`ri anglab etmog`i lozim. Ya`ni ma`naviy, ahloqiy jihatdan komil inson bo'lib, hur fikrlay olsin.

Tasviriy san`atni tushunish uning estetik tarbiya bilan uzviy big`liqligini san`atshunoslar Rempil, n. Abdullaev, T. Mahmudov va boshqalar bir necha bor asarlarida aytib o'tganlar. Uslubiy jihatdan R. Xasanov, Q.Qosimov, S. Bulatov, A. Sulaymonov, B. Oripov, H. Egamov va boshqalar ham o'z kitoblarida keltirib o'tadilar.

Har buyumlarning loyihasini chizish, tuzish davrida rasmlar, eskizlar, sxemalar, chizmalar chiziladi. Umuman jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi bilan chizmalarning rasmiylashishi o'zgarib borgan.turli xildagi

buyumlarni tasvirlash, rasmini chizish kishilarning uzviy aloqa vositasi sifatida hatto yozuv paydo bo’lishidan ham oldinroq vujudga kelgan. Shuningdek vaqt o’tishi bilan oddiy rasmlar o’rnini sxemalar, plan (rejalar) kabi chizmalar paydo bo’ldi va inson hayotini turli jihatlardan yaxshilash uchun xizmat qila boshladi. Demak, kishilik jamiyatiga san`at, go’zallik, dizayn kirib keldi.

Inson doimo o’z hayotini biron-bir tarzda go’zal qilishga intiladi – deyiladi manbalarda. Haqiqardan ham inson hamisha go’zallikka intilib yashagan va bu intilish hayot bor ekan davom etaveradi. Shuning atrofida tasviriy san`at umri boqiydir. O’zimizni chiroyli, go’zal qilish emas balki barcha narsalarimiz ham go’zal bo’lishini hohlaymiz. Bu hohish bizga juda katta ma`suliyat yuklaydi. O’z navbatida ta`lim-tarbiya shunday ma`suliyatning eng nodir, mustahkam himoyachisi va asosiy o’zagi bo’lib xizmat qiladi. Borliqdagi barcha narsalar uzviylikda rivojlanadi. Bunda tasviriy san`at va chizmachilik fanining ahamiyati kattadir.

Bir savol tug`iladi, nima tasviriy san`at va chizmachilik darslari o’tilmagan oldingi davrlarda ham odamlar yashagan-ku? Ha, yashagan! Lekin yangi davr, tsvilizatsiya kutib turishni hohlamaydi, doimo etuklik sari intilish bo’laveradi. Bu hayotda hamma o’ziga keraklisini qabul qiladi va o’z ma`naviy dunyosi, olamidan tashqarida ortiqchasini o’ziga sig`dira olmaydi. Shuning uchun ham odamlar orasi turlicha, ma`naviyatda ham, jamiyat-hayot yo’lidagi harakatida ham. Doimo, doimo olg`a intilish shudir rivojlanish, shudir hayot ma`nosi, shudir ma`naviyat va ma`rifat.

Prezidentimiz, akademik I.A.Karimov shunday yozgan edi: «O’zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o’z yo’li to’rtta asosiy negizga asoslanadi.

Bu negizlar:

umumiy insoniy qadriyatlarga sodiqliq;

halqimizning ma`naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

vatanparvarlik;»

tasviriy san`at va chizmachilik fanini o’qitish orqali umuminsoniy qadriyatlar

ya`ni, ahloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya masalalarini ham qamrab estetik didni, tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kasb-hunar kllejlarida hozir amalga oshirilayotgan islohatlar badiy va dizayn ta`lim-tarbiya jarayoning oldingi holatiga nisbatan rivojlanayotgan, yaxshilanayotgan bo'lsada uni yanada rivojlantirish zaruriyatini ham keltirib chiqarmoqda.

Bu masalada tasviriy san`at va chizmachilik o'qituvchisining roli katta. U chuqur bilimga ega bo'lishi uchun tinmay o'z ustida muntazam mashq qilib borishi, o'zining ilmiy-nazariy, amaliy bilim saviyasini takomillashtirib, ilg`or tajribalarni o'rganishi unga tayanishi lozimdir.

Har bir tasviriy san`at va chizmachilik darsini kerakli ko'rgazmali vositalar bilan boyitib, undan foydalanishi lozim. Chunki bu fanda ko'rgazmalar yordamchi emas balki ular dars uchun asosiy materiallardan biri bo'lib hisoblanadi.

Borliqni texnikani o'rganish uchun o'quvchilani komil shaxs qilib tarbiyalash uchun ularning o'quv faoliyatini faollashtirish davr talabidir, bu shundagina o'quvchi hayotiga samarali ta`sir ko'rsatadi.

# II BOB. **KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA CHIZMACHILIKDA O’QITILADIGAN MAVZULARNI O’QITISH METODIKASI**

## 2.1.Chizmachilik fannidan darslarni samarali tashkil etish tizim asosida o’qitishning metodik talablari.

Chizmachilik fannidan dars jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Baxslar. O’quv guruhini ikki komandaga bo’lgan holda biror mavzu bo’yicha o’zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o’tkaziladi.

**2. Tadqiqot.** Ta`lim oluvchilarning ayrim tadqiqot ishlarini ya`ni diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari, ularni yozish va qo’yilgan maqsad va natijalarni tahlil qilishlari tadqiqot usulidir.

**3. Muzyorar.** Ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar o’rtasidagi «to’siqni» yo’qotishga qaratilgan usul.

**4. O’yinlar.** Ishbilarmonlik yoki rolli (vaziyatli) o’yinlar –muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o’rinda, matnli material o’rniga o’quvchilar tomonidan rollar o’ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

**5. Loyihalash ishlari.** Bu usul bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta`limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Loyiha usulida o’quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda, va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko’proq ishtirok etadilar.

**6. Kitob bilan ishlash.** Ushbu usul ta`lim oluvchilarning o’quv materialini mustaqil o’zlashtirishini, o’z-o’zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini to’liq va ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usuldir.

**7. Pinbord.** Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o’quv suhbati amaliy usul bilan bog`lanib ketadi. Ta`lim oluvchilar axborotlari, ma`lumotlari doskada tartib bilan joylashtiriladi.

**8. Boshqalarni o’qitish.** Bu usulda ta`lim oluvchilar qo’yilgan muammo bo’yicha bir – birlariga axborotlar va ma`lumotlarni o’rgatadilar.

**9. Davra suhbati.** Ta`lim oluvchilar davra stolida o’tirib bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozishadi.

## An`anaviy o'qitish metodlari

O'nlab yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an`anaviy dars o'tish ta`limning o'ziga xos usullaridan biri bo'lib qolmoqda.

An`anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta`lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta`lim usulidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an`anaviy dars – ko'p hollarda ta`lim jarayonining birdan-bir usuli bo'lib qolmoqda.

Ma`lumki, an`anaviy darsda ta`lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. SHu bois ba`zida an`anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta`minlash;
- o'qish jarayonini to'g`ri yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engilashtiruvchi shaxs;
- o'quv jarayonini baholash.

An`anaviy dars o'tish usulida ko'proq ma`ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi usullardan foydalaniladi. SHu sabab, bu hollarda an`anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta`lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an`anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan usullar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o’qituvchi tomonidan o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta`lim jarayonida faolligi muttasil rag`batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o’yinlar usullarini qo’llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o’quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-barang baholash usullaridan foydalanish ta`lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

**O’qitishning noan`anaviy metodlari**

O’qitishning noan`anaviy usullarini shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin: hamkorlikda o’rganish usuli; usullashtirish; o’rganishning tadqiqot usuli.

Bu usullar asosan o’quvchi shaxsiga qaratilgan bo’lib ularni boshqacha qilib markazda o’quvchi turgan ta`lim usullari deb ham atashadi.

Usullashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko’rinishini (usulini) sinfxonada yaratish va ularda o’quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta`lim olishini ko’zda tutuvchi usul.

Hamkorlikda o’rganish usuli – o’quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta`lim olishini ko’zda tutadigan usul.

O’rganishning tadqiqot usuli – o’quvchilarni muayyan muammoni echishga yo’naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko’zda tutuvchi usul.

O’qitish jarayonidagi mavjud an`anaviy ta`lim bilan qurollangan ta`lim muassasalari endilikda o’z oldiga qo’yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga ojizlik qilmoqda.

Taniqli olim M.N. Maxmutovning fikriga ko’ra, o’quv jarayonini tashkil etishning an`anaviy sxemasi o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini etarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo’lgan ehtiyojlarini, fanga bo’lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e`tiqodga, e`tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta`minlay olmaydi.

Kasb-hunar kolleji va oliy o’quv yurtlari o’qituvchilarining ilg`or tajribalari

yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma`lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir hildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi.

Noan`anaviy ta`lim jaryonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta`lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Noan`anaviy ta`lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;

- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;

- ta`limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;

- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;

- o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

## Kasb – hunar ta`limida innnovatsion texnologiyalar

**O'qitishdagi innnovatsion texnologiyalar** – bu ukuvchilarning *tizimli ijodiy fikrlashini* va ijodiy masalalarni echishda nostandart g`oya-fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan texnologiyalardir.

Innovatsion o'qitishning pirovard natijasi quyidagilardan iborat:

- ukuvchida boshqa ko'pchilik odamlar uchun ko'rinmaydigan narsani ko'rish qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish;

- ukuvchining ko'rganini, yangi narsa yaratish nuqtai nazaridan, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish. Bunda faqat yangilik emas, balki muammo yoki masalani samarali hal etish maqsadi qo'yiladi.

**Innovatsiya** – bu yangi texnologiyalarga, nou-xau, yangi ishlab chiqarish omillariga tadbiq etilgan yangi bilimlardan foydalanish (yoki ma`lum bilimlardan yangicha foydalanish) yo'li bilan yangi ixtiyojni qondirishga qaratilgan harakat yoki bunday harakat natijasi (yoki eski ixtiyojni ancha samarali qondirishning yangi yo'lini taklif etish). Innovatsiya maqsadi – yuqori djarajada bozorbop yangi mahsulot yoki xizmatlarni olishdan *iborat.*

O'qitishdagi innovatsion texnologshiyalar uchta maqsadni ko'zda tutadi:

- ukuvchining shaxsiy-intellektual va ma`naviy jihatdan yuqori darajada rivojlanishini ta`minlash;
- ukuvchining ilmiy tadqiqotlar ko'nikmalarini egallashi va bunga mos fikrlash tarzini paydo qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy va kasb doiralarida yangiliklar kiritish metodologiyala-rini bilish.

**Birinchi maqsad** davlat ta`lim standartlarida ko'rsatilgan ijtimoiy-gumanitar, matematik va tabiiy fanlarni o'qitish yo'li bilan ta`minlanadi.

Bunda barcha fanlar ukuvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini, o'z fikrini og`zaki va yozma ifodalash mahoratini mrivojlantirishga qaratilgan mos o'qitish texnologiyalaridan foydalaniladi.

**Ikkinchi maqsad** ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini egallashdan iborat bo'lib, bunga fundamental umumkasbiy fanlarni o'rganishda erishiladi. Bu fanlar ijodiy fikrlashni ta`minlaydigan va bilish jarayonini faollashtiradigan o'qitishning kreativ texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi va b. ni qo'llanib o'qitiladi.

**Uchinchi maqsad** innovatsion fikrlashni rivojlantirishdan iborat bo'lib, bunga ukuvchilar maxsus fanlarni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyalari asosida o'rganishi orqali erishiladi.

Ta`limning innovatsionligini aniqlovchi muhim omillardan biri ta`lim programmalaridir. Ta`lim programmalarining innovatsionlikka ta`siri quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- tarkibi, mazmuni va muammoligi;
- nafaqat tushunishni, balki mahoratni ham ta`minlaydigan mo'ljal;
- rasmiy va norasmiy ta`limni qo'shish;
- ko'p variantlilik, alternativlik (muqobillik) va ko'p aspektlilik;
- istiqbollik;
- ta`lim programmasini bajaruvchilar tarkibi.

Innovatsion ta`lim programmalari ukuvchilarda quyidagi:

- mavjud bo'lganlarini yangicha ko'rish va buning asosida yangi echimlarni taklif etish;
- rivojlangan tasavvurni va tasavvur hamda obrazlarni faoliyatning bir sohasidan boshqasiga ko'chirish;
- tanlangan faoliyat sohasida yangi o'rinlarni egallash niyatida farosatli tavakkallik;
- ijodiy faoliyat metodlaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim.

Kasb - hunar ta`limining innovatsionligini tavsiflovchi boshqa muhim omil innovatsion dinamikadir**.** Bu, jarayonning bosqichlarini, boshlang`ich ilmiy bilimlarni natijalovchi mahsulotga (tovar .yoki xizmatlarga) aylantirish metod va usullarini ifodalaydi.

Kasbiy ta`limning innovatsionligi nafaqat uning didaktik tuzilishiga, balki ijtimoiy muhim natijalarga – o'qituvchining psixologik siymosiga ham tegishlidir.

O'qituvchining innovatsion faoliyati borlikni o'zgartirishga, muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni hal etish usullariga qaratilgan.

O'qituvchi bilan ukuvchining yangicha munosabatlarida majburlash va buyruqlariga bo'ysundirish bo'lmasligi, balki teng hamkorlik va birgalikda ishlash tuyg`u-xislari bo'lishi lozim

O’qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy vazifalari bilan tavsiflanadi: kasbiy faoliyatni iroda bilan tizimli tahlil etish; normativlar va qoidalarga tanqidiy munosabatda bo’lish; kasbiy yangiliklarga ochiqligi; atrof borliqqa ijodiy qayta qurish munosabatida bo’lish; o’zini ifodalashga, o’zining niyat va g`oyalarini kasbiy faoliyatida mujassamlantirishga intilish.

O’qituvchining innovatsion faoliyatiga yangilikni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi harakatlarining maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, bu rejani amalga oshirish va uni to’g`rilash, samarasini baholash kiradi.

O’qituvchi innovatsion faoliyatining samaradorligi quyidagi shartlarga bog`liq:

- o’qituvchining ukuvchilar bilan konstruktiv muloqatga tayyorligi;
- ukuvchilarning qarshi fikrlariga beg`araz munosabatda bo’lish;
- kasbiy reflektsiyaga qobiliyati;
- innovatsion faoliyatga zaruriyatni sezish, idrok etish;
- shaxsiy maqsadlarning innovatsion faoliyat bilan muvofiqlashti-rilganligi (uyg`unlashtirilganligi);
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga tayyorligi.

Bu shartlarni bajarishda bilim olish jarayoni va ilmiy faoliyat rag`batlantiri-ladi.

O’qitishning innovatsion texnologiyalariga shartli «Fikrlarni ulashish vaqti» va «Fikrlarni yig`ish vaqti», deb ataluvchi texnologiya kiradi.

## Pedagogik texnologiyalar

Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o’zaro ta`sirini inobatga olib ta`lim maqsadlarini oydinlashtirib, o’qitish va bilim o’zlashtirish jarayonlarida qo’llaniladigan usul va metodlar majmuidir.

YUNESKO tashkiloti ma`qullagan ta`rif: «Pedagogik texnologiya – bu, ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o’zaro ta`sirini inobatga olib, o’qitish va bilim o’zlashtirishning

barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo’llashning tizimli metodidir».

Pedagogik texnologiyalarni muhim hususiyatlari, belgilari quyidagilardan iborat:

- ta`lim jarayonini oldindan loyihalash va auditoriyada o’quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;

- tizimli yondashuv asosida talabaning o’qish – bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`lim jarpayoni loyihasini tuzish;

- ta`lim maqsadi real, aniq diagnostik bo’lishi va o’quvchining bilim o’zlashtirish sifatini ob`ektiv baholash;

- ta`lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o’zaro bog`liq va o’zaro ta`sirda bo’lish;

- ta`lim shakllarini optimallashtirish;

- ta`lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o’zaro ta`sirini hisobga olish;

- ta`lim maqsadlarini ko’zlagan etolon asosida o’quvchilarning kuzatiladigan, o’lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;

- talabaning faolligiga tayanib o’qitish;

- bilim o’zlashtirish jarayonida yo’l qo’yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;

- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;

- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;

- ta`limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlan-ganligi;

- ta`lim samaradorligining yuqoriligi.

Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti quyidagi qonuniyat va printsiplarga asoslanadi:

- ta`lim – tarbiya jarayoni tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi, birligi;

- ta`lim jarayonini optimallashtirish: qulay sharoit yaratib, oz vaqt, kam kuch sarflab yuqori natijaga erishish;

- zamonaviylik: pedagogik amaliyotga ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni, yangi tartib – qoidalarni joriy etish, ta`lim mazmunini uzluksiz

yangilab, zamonaviylashtirib borish;

- ilmiylik: ta`lim – tarbiyada yangi shakl va vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni qo’llash, uzluksiz izlanish, tadqiqot;

- talaba va o’qituvchi faoliyatini oqilona uyushtirish: o’qituvchi ta`lim maqsadini, mazmunini puxta bilishi, ta`lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo’lishi, o’quvchining manfaatdorligi, qiziqishi va intiluvchanligi;

- pedagogik jarayonni jadallashtirish: axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va keng qo’llash;

- o’quv jarayoni uchun zarur moddiy – texnik bazasi yaratish;

- pedagogik jarayon natijalarini xolisona va ob`ektiv baholash: test usuli, reyting tizimi, talabaning bilim va ko’nikmalarni egallash jarayonini nazorat qilish, baholashni avtomatlashtirish;

- ta`lim – tarbiyaning tabiatga mosligi;

- ta`lim – tarbiyaning jamiyatga mosligi.

**2.2.Chizmachilik o’quv mashg`ulotlarida tutashma mavzusini o’qitish metodikasini ishlab chiqish.**

| **Mavzu** | **Tutashmalar. To’g’ri, o’tmas va o’tkir burchak tomonlarini tutashtirish** |
|---|---|

**Amaliy mashg’ulotining texnalogiyasi**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 45 min | O’quvchilar soni 25-30 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Amaliy mashg’ulot |
| Amaliy mashg’ulotining rejasi | 1. Tutashmalar haqida ma’lumot berish.<br>2. Aylanaga urinma tog’ri chiziq va ikkita to’g’ri chiziqqa urinma aylana yoyini o’tkazish haqida ma’lumot berish.<br>3. To’g’ri, o’tkir va o’tmas burchak tomonlarini tutashtirish haqida tushincha berish. |
| ***Amaliy mashg’ulotining maqsadi:*** **Tutashmalar. To’g’ri, o’tmas va o’tkir burchak tomonlarini tutashtirish haqida ma’lumot berish** | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>- Tutashmalar haqida umumiy ma’lumot berish.<br>- Aylanaga urinma tog’ri chiziq va ikkita to’g’ri chiziqqa urinma aylana yoyini o’tkazish haqida umumiy ma’lumot berish.<br>- To’g’ri, o’tkir va o’tmas burchak tomonlarini tutashtirish haqida tushincha berish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:***<br>O’quvchi:<br>- Tutashmalar haqida umumiy ma’lumotga ega bo’ladi.<br>- Aylanaga urinma tog’ri chiziq va ikkita to’g’ri chiziqqa urinma aylana yoyini o’tkazish haqida umumiy ma’lumotga ega bo’ladi.<br>- To’g’ri, o’tkir va o’tmas burchak tomonlarini tutashtirish haqida tushincha hosil qiladi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | So’zlab berish, tushuntirish. |
| O’qitish vositalari | Mavzu mazmuniga oid o’quv plakatlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa va guruhda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoitlari | Proektor, kompyuter bilan jihozlangan sinf xona. |

## Amaliy mashg’ulotlarining texnologik xaritasi

<table>
<tr><td rowspan="2">Bosqichlar vaqti</td><td colspan="2">Faoliyat mazmuni</td></tr>
<tr><td>O’qituvchi</td><td>O’quvchi</td></tr>
<tr><td>1-bosqich<br>Kirish<br>(10 min.)</td><td>1.1.Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi</td><td>1.1.Eshitadi, yozib oladi</td></tr>
<tr><td>2-bosqich.<br>Asosiy<br>(25 min.)</td><td>2.1. O’quvchilarning e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javoblar o’tkazadi.<br>1. Tutashma deb nimaga aytiladi?<br>2. Tutashtirish markazi deb nimaga aytiladi?<br>3. Burchaklarni tutashtirish markazi qanday aniqlanadi?<br><br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi.<br>1. Tutashmalar haqida ma’lumot berish.<br>2. Aylanaga urinma tog’ri chiziq va ikkita to’g’ri chiziqqa urinma aylana yoyini o’tkazish haqida ma’lumot berish.<br>3. To’g’ri, o’tkir va o’tmas burchak tomonlarini tutashtirish haqida tushincha berish.<br><br>2.3.O’quvchilarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qaratishni va yozib olishni ta’kidlaydi.</td><td>2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarga izoh beradi.<br>O’ylaydi, javob beradi va to’g’ri javobni eshitadi.<br><br>2.2. Chizmalar va jadvallar bilan tanishib, ularning mazmunini muhokama qiladi.<br><br>2.3. Eslab qoladi.<br>qoidalar va ta’riflarni yozib olib ularga misollar keltiradi.</td></tr>
<tr><td>3-bosqich<br>Yakuniy<br>(10 min.)</td><td>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va o’quvchilar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi.<br>3.2. Faol ishtirok etgan o’quvchilar rag’batlantiradi.</td><td>3.1. Eshitadi, o’z fikrlariga aniqlik kiritadi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</td></tr>
</table>

## Vizual materiallar

**1-savol. Tutashmalar haqida ma'lumot berish.**

**1-ilova**

Turmush (texnika) da qo'llaniladigan har bir buyum uni ishlatilish sharoitiga mos, ixcham, qulay hamda chiroyli bo'lishi kerak. Bunday buyumlarda tutashmalar ko'p uchraydi.




**1-chizma.**

Mashina detallarini chizishda ko'pincha bir chiziqni ikkinchi chiziq aylana bila, aylanani yoylar bilan ravon tutashtirishga to'g'ri keladi. Bunday tutashtirish *tutashma* deyiladi. Masalan, 1-chizmada shaxmat donalaridan biri tasvirlangan bo'lib, to'g'ri chiziq hamda aylana yoyi, shuningdek, aylana yoylari o'zaro ravon tutashgan. To'g'ri chiziqni aylana yoyi bilan, aylanalarning ravon o'tadigan joyi, *A* va *B* nuqtalar *tutashtirish nuqtasi* deyiladi. Aylanani aylana yoyi bilan tutashtiruvchi markazi *O* nuqta *tutashtirish markazi* deyiladi. *O* nuqtadan chizilgan yoy *tutashtirish radiusi* deyiladi. Tutashmalar sirkul yordamida chiziladi. Shu sababli bu chiziqlar *sirkul egri chiziqlari* ham deyiladi.

2-savol. Aylanaga urinma tog'ri chiziq va ikkita to'g'ri chiziqqa urinma aylana yoyini o'tkazish haqida ma'lumot berish.

**2-ilova**

**Aylanaga urinma to'g'ri chiziq o'tkazish.** Aylanaga urinib o'tuvchi to'g'ri chiziqning urinish nuqtasi *A* ni aylana markazi *O* bilan tutashtiriladi va urinma tog'ri chiziq *OA* ga perpendikulyar qilib o'tkaziladi (2-chizma). Chiziqqa aylanani urinma qilib o'tkazish uchun to'g'ri chiziqdagi *A* nuqtadan unga perpendikulyar chiziq o'tkaziladi va urintiriladigan aylana radiusi *A* dan boshlab o'lchab qo'yilib, *O* nuqta aniqlanadi. Keyin *O* nuqtadan to'g'ri chiziqqa urinma aylana o'tkaziladi (2-chizma).




2-chizma.




3-chizma.

**Ikki to'g'ri chiziqqa urinma aylana yoyini o'tkazish.** To'g'ri chiziqlar o'zaro parallel, perpendikulyar, o'tmas va o'tkir burchaklarda joylashishi mumkin. O'zaro parallel to'g'ri chiziqlarni *R* radiusli yoy bilan yumaloqlash uchun ikkala to'g'ri chiziqqa perpendikulyar yordamchi to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Hosil bo'lgan *A* va *B* nuqtalar oralig'I teng ikkiga bo'linadi va *O* nuqta topiladi. *O* nuqta orqali *R* radiusli yoy bilan o'zaro parallel to'g'ri chiziqlar tutashtiriladi (3-chizma).

**3-savol. To'g'ri, o'tkir va o'tmas burchak tomonlarini tutashtirish haqida tushincha berish.**

**3-ilova**

**To'g'ri, o'tkir va o'tmas burchak tomonlarini tutashtirish.** Texnikada detallarning aniq ishlanganligini tekshirish maqsadida turli kalibrlardan foydalaniladi. Shulardan biri tahlil qilinsa, uning to'g'ri, o'tkir va o'tmas burchaklari yumaloqlangan bo'ladi (4-chizma).




4-chizma.

To'g'ri burchaklarni yumaloqlash uchun ularning kesishgan joyi *C* nuqtadan tutashtirish radiusi *R* gat eng radiusda yoy chiziladi. Shunda to'g'ri burchak tomonlarida *A* va *B* nuqtalar hosil bo'ladi (5-chizma, *a*). *A* va *B* nuqtalardan burchak tomonlariga perpendikulyar yordamchi chiziqlar o'tkazilsa, ular o'zaro kesishib tutashtirish markazi *O* hosil bo'ladi (5-chizma, *b*). Yoki *A* va *B* nuqtalardan sirkulda tutashtiri radiusi *R* ga teng yoylar chizilsa, ular o'zaro kesishib tutashtirish markazi *O* aniqlanadi (5-chizma, *d*). Shundan keyin *O* nuqta orqali burchak yumaloqlanadi (5-chizma, *e*).




**5-chizma.**

O’tmas va o’tkir burchaklarni yumaloqlash ham to’g’ri burchakni yumaloqlash kabi amalga oshiriladi. Tutashtirish radiusi *R* masofada burchakning tomonlariga parallel to’g’ri chiziqlar o’tkaziladi. Bu yordamchi chiziqlar o’zaro kesishib, tutashtirish markazi *O* ni hosil qiladi (6-chizma, *a*). *O* nuqtadan burchak tomonlariga yordamchi perpendikulyar chiziqlar o’tkazilsa, burchak tomonlarida *A* va *B* o’tish nuqtalari aniqlanadi (6-Chizma, *b*). *O* nuqta orqali burchak yumaloqlanadi.




**6-chizma.**

O’tgan mavzuga oid nazorat savollari

1. Aylananing qaysi elementi oltidan bir qismiga teng?
2. Aylanani uning qanday elementi teng ikkiga bo’ladi?

Mavzuga oid nazorat savollari

1. Tutashtirish markazi deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
2. Tutashtirish nuqtasini qanday aniqlash mumkin?
3. Burchaklarni tutashtirish nuqtasi qanday aniqlanadi?

## 2.3. Chizmachilik o'quv mashg`ulotlarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish

Kasb-hunar kollejlari o'quv jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta`minlaydi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo'lib ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos hususiyatga ega bo'lib ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta`minlash;
- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaninig hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog`liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil

texnologiyalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o’qituvchi va o’quvchi–talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog`liq deb hisoblaymiz, ya`ni o’qitish jarayonida maqsad bo’yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo’llaniladigan har bir ta`lim texnologiyasi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa o’quv jarayonida o’quvchi talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, taxlil eta olsalar, o’zlari hulosa qila olsalar, ularga baho bera olsalar, o’qituvchi esa ularni bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu o’qitish jarayonining asosi sifatida xizmat qiladi.

O’qituvchi o’quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashi uning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda o’qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. O’qituvchi tomonidan har bir darsning yaxlit holatda ko’ra bilishi va uni tasavvur etish uchun bo’lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o’qituvchiga u tomonidan bo’lajak darsni texnologik kartasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik kartasi har bir mavzu, har bir dars uchun o’qitilayotgan predmet, fanning hususiyatidan o’quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o’qituvchi pedagogika, psixologiya, hususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo’lishi, shuningdek, juda ko’p metodlar, usullarni bilishi zarur bo’ladi.

## O’quv materialining muammoli bayon etish

Ukuv jarayonini yanada takomillashtirishning asosiy yunalishlari ukuvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish, mustakilligini rivojlantirish, ukitishning eng samarali forma va metodlaridan fodalanishdir.

Muammoli jarayon xosil kilish ukuvchilar aktiv akliy faoliyatning zarur shartidir. Ukuvchi oldiga muayyan vazifa kuyiladi, bu vazifa unda kizikish

uygotadi va ukuvchi bu vazifani xal kilishga urinadi, ammo uz bilimlari xamda tajribalari etarli darajada tula va chukur emasligini paykaydi, ya`ni anik kiyinchilikka duch keladi. Ukuvchida xosil bulgan vaziyatdan chikish yulini topishdek ichki extiyoj paydo buladi, kiyinchilikni xis etish paydo bulgan sharoitni analiz kilishga va kuyilagn masalani echish yullarini topishga undaydi. SHunday kilib, bilish lozim bulgan va amaliy vazifalar bilan ukuvchilarning bilimlari darajasi orasida ziddiyatlar paydo buladi, bu ziddiyatlar yuzaga kelgan kiyinchilikni bartaraf etishga karatilgan intensiv fikrlash faoliyatini uygotadi.

Inson bilimlar sistemasini bilib olar ekan, ayni zamonda bu bilimlarni ishlatish usullarini, amaliy va nazariy masalalarni echishda bilimlardan foydalanish uchun zarur buladigan intellektual xarakatlarning murakkab sistemasini xam uzlashtiradi. Fikrlashdagi xarakatlarni «dilda» bajarishga karatilgan akliy operatsiyalar sistemasi, debgina tushinish yaramaydi. Tafakkur amaliy yoki nazariy xarakatdan ajralmasdir, u insonning butun faoliyatiga xizmat kiladi, inson uz oldiga vujudga keladigan muammolarni echishning tayyor usullariga ega bulmagan yoki xarakatlarni bajarishning yangi usullarini topishi zarur bulgan xollarda uning faoliyatini tartibga solishga yordam beradi.

Fikrlash jarayoni amalga oshadigan asosiy forma muammolarini, ya`ni bilish lozim bulgan, echilish yuli noma`lum yoki mavjud bilim xamda malakalarni yangi, odatlanilmagan sharoitda tadbik etishni talab kiladigan intellektual va amaliy vazifalarni xal kilishdan iborat.

Muammoli vaziyatni xal etish asosida tashkil kilingan ukuv jarayoni pedogogikada muammoli ukitish deb ataladi. Muammoli ukitish vaktida xamma vakt masala (muammo) kuyiladi va xal kilinadi. Bu muammo savol, topshirik, masala tarzida beriladi. Ammo ukitishda, shu jumladan, ukuv materialini uzlashtirishdan oldin savol va masalalardan foydalanish muammoli ukitish shartlariga xamma vakt xam tugri kelavermaydi. «Muammoli vaziyat» xamda «masala» tushunchalarining ma`nosi bir xil emas. «Masala» tushunchasi bilan xarakatning ba`zi ob`ektiv beriladigan xarakteristikalarigina belgilanadi, ishtirok etuvchi shaxs- sub`ekt esa kushilmaydi. Masalani echish jarayoni izlanayotgan

zarur narsaning topilishini ta`minlaydigan masala shartlarini uzgartirish sistemasidan iborat. Kupchilik xollarda masala ma`lum bulgan bilim, ukuv va malakalarni bevosita tadbik etish asosida bajariladi yoki xal kilinadi.

Muammoli vaziyat- sub`ekt (ukuvchi) bilan ob`ekt (masala) uzaro ta`sirining uziga xos turi. Muammoli vaziyat avvalo ukuvchining fan tugrisida, topshirikni bajarish usullari yoki shartlari tugrisida yangi bilimlarni «kashf etishni» (uzlashtirishni) talab etadigan vazifani bajarish jarayonida paydo buladigan muayyan psixik xolatni xarakterlaydi.

Muammoli vaziyatlar yaratishda pedogogika fani ishlab chikkan xamda amalda tekshirib kurilgan kuyidagi koidalarga amal kilish zarur.

1. Muammoli vaziyat yaratish shunday amaliy yoki nazariy masalani nazarda tutadiki, bu vazifani bajarishda ukuvchi uzlashtirishi kerak bulgan yangi bilimlar yoki xarakatlarni «kashf» etish lozim.

2. Masala kuyidagi shakllarda berilishi mumkin: savol shaklida, bunda ma`lumotlar surok gapga kiritilgan buladi; bunda savolning ta`rifi, uning moxiyati vazifani bajarishda ukuvchida paydo buladigan real savolga mos kelishi kerak.

3. Masala xamisha ukuvchining bilim va ukuvlariga asoslanishi lozim. Ular savol yoki vazifaning moxiyatini, tub maksadini va echish yullarini tushunish uchun etarli bulishi kerak.

4. Ukuvchiga taklif etiladigan muammoli vazifa ukuvchining intellektual imkoniyatlariga mos kelishi zarur.

5. Odatda, muammoli vazifa uzlashtirilishi lozim bulgan ukuv materialdan oldin berilishi darkor.

6. Ukuvchilarning muammoli masalalar echish yuli bilan yangi bilimlarni uzlashtirish jarayoniga ukituvchi doimo bevosita raxbarlik kilishi kerak.

7. Bilim va xarakatlarning ma`lum darajada murakkab sistemasini muammoli uzlashtirishni ta`minlash uchun muammoli vaziyatlar yaratishda muayyan tizimiga rioya kilish kerak:

- murakkab topshirikni ancha mayda, xususiy topshiriklarga bulish zarur; ba`zi xollarda asosiy masala bir necha dars yoki, xatto, butun boshli mavzu doirasida yagona buladi va xususiy vazifalar sifatida echiladi;

- xar xil muammoli vaziyatlar uchun xos bulgan didaktik funktsiyalarni fark kilish kerak: mavzuni urganish boshida xosil kilinadigan birinchi muammoli vaziyat ukuvchilarda urganilayotgan umumiy konuniyatni uzlashtirish uchun extiyoj uygotishi darkor; shundan keyin anik muammoli vaziyatlar sistemasining xammasi shu asosiy masalani ochishga xizmat kiladi;

- muammoli vaziyatlar sharoitida ukituvchi bayon etadigan ukuv materialini va ukuvchilar mustakil uzdashtiradigan materialni aniklashga differentsiallangan tarzda yondoshish kerak; bir darsning uzida, odatda, ikkala tipdagi materialdan foydalaniladi.

Xotimada shuni ta`kidlab utish zarurki, darsda muammoli vaziyatlar xosil kilish okibat natijada anik ukuv materialini ongli ravishda uzlashtirishga karaganda ancha kup narsani bilishga yordam beradi.

# III BOB. MAVZU BO‘YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKILIY MASALALARI VA NATIJALARI.

## 3.1. Kasb-hunar kollejlarida tutashmalar mavzusini o’qitishga yo’naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodlari.

Tajriba-sinov jarayonida foydalanilgan asosiy material kasb-hunar kollejlar uchun tanlangan tutashmalar mavzusini o’qitishga oid topshiriqlardan iborat. Biz tajriba-sinov jarayonini tashkil etishda nazorat sinflarida ham, tajriba sinflarida ham talabalarning soni, tutashmalar mavzusini o’qitish darajasi hamda turli xil ko’rinishdagi tutashmalarni to’g`ri bajarish malakalari bir xil bo’lishiga e`tiborimizni qaratdik. Tanlangan nazorat va tajriba sinflarida talabalarning soni 35 nafardan bo’lib, bu sinflarda dars beradigan o’qituvchilar aynan bir xil ta`lim metodlaridan foydalanishi aniqlandi. Chunki tajriba-sinovning maqsadi talabalarning chizmachilik darslarida tutashmalar mavzusini smasrali o’zlashtirishga yo’naltirilgan o’quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat edi. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida talabalarning kichik sodda va murakkablikdagi tutashmalarni tushuntirish imkoniyatlari aniqlandi. Bunda sodda tutashmalarni bajarib, savollar berib yozma javob olish, suhbatlar, grafik vazifa chizmalarini asosida erkin mavzudagi chizmalar chizilib, talabalarning grafik savodxonligi, mustaqil fikrlash darajasi, tutashmalarni sodda va murakkabligiga qarab, aniq ishlash jarayonida xato qilmaslik imkoniyatlarining muayyan darajasi aniqlandi. Kasb-hunar kollejlarida o’qituvchilarning ish tajribasini kuzatganimizda guruhlarda mustaqil grafik ishlari sifatida asosan test topshiriqlar bilan cheklanilganligini aniqlashga muvaffaq bo’ldik. Kuzatishlarimiz yana shuni ko’rsatdiki, aksariyat hollarda ayrim guruh talabalari hattoki, oddiy tutashmalarni ishlash ko’nikmasiga ham ega emas ekan. Talabada o’z fikrini bayon qilish uchun mustaqil fikrlash ko’nikmalari etishmaydi. Jumlalar uslubiy jihatdan noto’g`ri tuzilgan. Fikr loyihalashtirilmagan. Talabada o’z fikrlarini to’g`ri bayon qilish uchun dalillar etarli emas. Bunday kamchiliklar guruh talabalarining aksariyat qismida uchraydi. Ushbu tajribalar umumlashtiruvchi xarakterga ega bo’lib, tadqiqot natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashni ko’zda tutadi.

## 3.2. Talabalarning grafik tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasi.

Kasb—hunar kollej ta`lim tizimini samarali rivojlantirishning muhim shartlaridan biri talabani ijodiy hamda grafik tayyorgarligini oshirishdan rivojlantirishdan iboratdir. YAngi mazmunga asoslangan o'quv jarayonida talabani ijodkor shaxs sifatida kamol toptirish vazifasi qo'yilyapti. SHu maqsadda dars jarayonida o'quv materiallarining axborotliligi ustivor bo'lishi lozim. Talaba mavjud dalillar, voqea-hodisalar, ijtimoiy jarayonlar haqida imkon qadar ko'proq ma`lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun axborotli o'quv materiallari taqdim etilishi talab qilinadi hamda talaba o'z fikrini mavjud dalillar, ma`lumotlarga tayangan holda aniq bayon etish ko'nikmasini egallashi lozim. SHu maqsadda dars materiallarining didaktik jihatlari ham amalga oshiriladigan bitiruv malaka ishida batafsil bayon etilishi zarur. Birinchi navbatda talabalarga taqdim etiladigan barcha o'quv materiallari axborotlashtirilishi kerak. Buning uchun har bir o'quv materialining didaktik tavsifi yaratilishi zarur. SHundagina ular har bir dalildan o'z nutqlarida muloqot matni yaratish jarayonida unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun atamalar va so'zlarning aniq, batafsil izohlangan ma`nolari o'quv jarayonida talabalarga taqdim etilishi talab etiladi. O'quv materialining talabaga haddan tashqari xaddan tashqari ko'p taqdim etilishi uning grafikaviy ko'nikmalari etarlicha rivojlanmayotgaligiga sabab bo'lmoqda. Talabaga nazariy materiallarni tig`iz va ko'p taqdim qilish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq emasligini bugungi kunda amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda. Boshqa bir tomondan nazariy materallarni o'quv vositalarida tig`iz joylashtirish shuning uchun ham samarali emaski, bugungi kunda fan-texnika va amaliyot birgalikda jadal o'zgarishlarga uchramoqda. SHuning uchun ham talabaga taqdim etilayotgan axborotlar bankini muntazam yangilab turish, ushbu axborotlar ularning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga samarali

ta`sir etishini ta`minlash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan talabalarning tutashmalar mavzusini oʻqitish orqali grafik tayyorgarligini oshirish koʻnikmalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan bitiruv malaka ishlari jarayonida quyidagilarni aniqlash ehtiyoji vujudga keldi:

1. Talabalarning tutashmalar mavzusini o’qitishda grafik ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltirilgan o’quv-biluv jarayoni muayyan izchillikda tashkil etilishi lozim.

2. Ta`lim mazmunining yangi modeli talabalarda keng ma`nodagi kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirishni nazarda tutgan holda belgilab berilishi kerak.

3. Talabalarda tutashmalar mavzusini mashg`ulotida ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltirilgan o’quv-biluv jarayonining mazmunini tanlashda o’qitshning ochiq, innovatsion ahamiyat kasb etishini ta`minlashga xizmat qiladigan yangi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

4. Talabalarning tutashmalar mavzusini o’qitishda grafik ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltirilgan o’quv-biluv jarayoni natijasida hosil bo’lgan ko’nikmalarning sifati muayyan talablar asosida baholanishi lozim.

5. O’quv-biluv jarayonining talabalarda tutashmalar mavzusini o’qitishda grafik ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik imkoniyatlarini belgilab berish va shu imkoniyatlar asosida o’qituvchining pedagogik mahoratini boyitish muhim ahamiyatga ega.

6. Talabalarning tutashmalar mavzusini o’qitishda grafik ko’nikmalarini shakllantirishda ularning yosh xususiyati va taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda ta`limiy topshiriqlar mazmuni va hajmini belgilab berish talab etiladi.

## 3.3-§. Tutashmalar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish

Dastlab «texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so’z texnikaviy taraqqiyot bilan bog`liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so’zdan «texnos» (techne) – san`at, hunar va «logos» (logos) – fan so’zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma`nosini anglatadi.

Bugungi kunda ta`lim jarayonida quyidagi o’qitish texnologiyalarini tadbiq etish mumkin:

- shaxsga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyasi;
- avtoritar o’qitish texnologiyasi;
- ishbilarmon o’yinli o’qitish texnologiyasi;
- muammoli o’qitish texnologiyasi;
- yakka tartibdagi o’qitish texnologiyasi;
- tabaqalashtirilgan o’qitish texnologiyasi;
- dasturlashtirilgan o’qitish texnologiyasi;
- kompyuterli o’qitish texnologiyasi;
- modulli o’qitish texnologiyasi;
- Kredit o’qitish texnologiyasi;
- Keys o’qitish texnologiyasi;
- TV o’qitish texnologiyasi;
- masofadan o’qitish texnologiyasi;
- an`anaviy o’qitish texnologiyasi;
- noan`anaviy o’qitish texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyalarni muhim hususiyatlari, belgilari quyidagilardan iborat:

- ta`lim jarayonini oldindan loyihalash va auditoriyada o’quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;

- tizimli yondashuv asosida talabaning o’qish – bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`lim jarpayoni loyihasini tuzish;

- ta`lim maqsadi real, aniq diagnostik bo’lishi va o’quvchining bilim o’zlashtirish sifatini ob`ektiv baholash;

- ta`lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o’zaro bog`liq va o’zaro ta`sirda bo’lish;

- ta`lim shakllarini optimallashtirish.

INTER FAOL METODLAR

Jamiyatimiz rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita texnalogiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Ta’lim sohasida ham zamonaviy tehnalogiyalardan foydalanib o’qitish sifatini oshirish maqsadida turli hil *interfaol metodlardan* foydalanilmoqda.

Chizmachilik sohasida ham ana shunday *interfaol metodlarni* qo’llash mumkin. Bunday metodlar o’qish sifatini oshiradi va fanni chuqurroq o’rganishga yordam beradi.

SHAJARALI KLASTER

*O’yinning maqsadi:* O’quvchilarning o’rgangan bilmlarini amalda qo’llay olishlarini sinab ko’rish va bilim salohiyatini oshirishga yordam beradi.

*O’yinning shatri:* Tutashmalarni turlari haqida chuqrroq o’rganishga yordam beradi. Klasterlash jarayonida o’quvchining fikriga e’tiroz berilmaydi.

1. Aqlingizga nima kelsa shuni yozing.
2. Imlo hatolariga e’tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to’xtatmang.
4. Agar fikr kelmay qolsa, chizmasini chizib o’tiring.

YUqoridagi fikrlarga asoslangan xolda tutashmalar mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

**Qani, kim tez chiza oladi**

Detalning yaqol tasvirlariga tutashmalar chizib ko’rsatilgan hamda yonida tutashma qoidalariga asosan tutashma turlari ko’rsatilgan. Bu o’yin tutashmalarini berilgan vaqt ichida ko’chirib chizishga mo’ljallangan. (Detalning yaqol tasvir chizilmaydi. U talabalarga nazariyani amaliyotdagi tadbiqi uchun ko’rsatilgan).

**Maqsad.** Talabalarda qo’lning har xil harakat qilish mahoratini oshirish, ko’zning chamalash qobiliyatini takomillashtirish, fazoviy fikrlash, tutashmalarni chizish, bilim va ko’nikmalarini o’stirish.

**Jihozlash.** Har bir o’yinchiga ytadigan, lekin uncha murakkab bo’lmagan, detallarning ko’rinishlari tasvirlangan kartochkalar. Uzoroqdan yaxshi ko’rinadigan detal ko’rinishlari va tutashmalar qonun qoidalari tasvirlangan chizma.

**Borishi.** Talabalarni uch guruga bo’linadi va tutashma ko’rinishlari chizilgan kartochkalar tarqatiladi va ularni qisa vaqt ichida chizish topshiriladi. Talabalar tutashmalarning ko’chirishga qiynalsa, ularga yordam berish maqsadida tutashmalar qonun qoidalari tasvirlangan chizma ilib qo’yiladi.

**Yakun.** Tez fursat ichida yaxshi va to’g`ri tutashma bajargan talabalar g`olib deb e`lon qilinadi.

Bu o’yinni o’tkazishdan oldin talabalar bilan tutashma qonun qoidalarini va turlari bo’yicha chizmalarni mashq qilish tavsiya etiladi. Ikkita to’g`ri chiziqa urinma aylana yoyini o’tkazish va to’g`ri, o’tkir va o’tmas burchak tomonlarini tutashtirish haida tushuncha berish. Ikkita aylanani uchinchi aylana yoyi yordamida o’zaro tutashtirish.


















## Внешнее и внутреннее сопряжения.




Внешнее Внутреннее

# KIM TO'G'RI AYTADI

*Savol:* To’g’ri burchakni yumaloqlash qaysi chizmada qo’llanilgan?

a




b




c







d

e







f


O’tkir burchak hosil qilib kesishuvchi to’g’ri chiziqlarni tutashtirish
O’tmas burchak hosil qilib kesishuvchi to’g’ri chiziqlarni tutashtirish
Aylana va aylanani kesib o’tuvchi to’g’ri chiziqni tutashtirish
Parallel to’g’ri chiziqlarni tutashtirish
Aylanalarga urinma o’tkazish
Aralash tutashma
O’zaro perpendikulyar chiziqlarni tutashtirish
Aylana va undan tashqarida turgan to’g’ri chiziqni tutashtirish
Nuqta orqali undan tashqarida turgan to’g’ri chiziqni tutashtirish
Tashqi tutashma
Ichki tutashma
Tutashmalar

# XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta`lim to'g`risida»gi Qonuni milliy tajribaning tahlili va ta`lim tizimi asosida yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, istiqbol

vazifalarini ilgari surish va hal etishag qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir.

Milliy istiqlol g`oyasiga sodiq, etarli intellektual salohiyatga ega ilm-fanni zamonaviy yutuqlar asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalashni mukammal tizimini shakllantirishni O’zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Jumladan, kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta`lim standartlari doirasida o’rta maxsus, kasb-hunar ta`limi beradi; o’quvchilarning kasb-hunarga moyilligi bilim va ko’nikmalarini chuqur rivojlantirish tanlab olingan kasb-hunar bo’yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlarida ta`lim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi o’z navbatida dunyo andozasiga mos, raqobatbardosh kichik mutaxassislarni tayyorlashda eng muhim vositadir. Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalar o’qitishining barcha tizimlarini o’z ichiga qamrab oladi. U ta`lim tizimini tartibga soladi, maqbullashtiradi, loyihalaydi va o’z navbatida natijalarni kafolatlaydi.

Ta`lim jarayonida an`anaviy va noan`anaviy metodni qo’llash bilan o’quvchilarni o’z-o’zini baholash tarbiyalash, boshqarish fanga bo’lgan ijobiy munosabatlarini shakllantirish mustaqil fikrlash ko’nikmalarini hosil qilishga imkoniyatlar doirasida kengaytiradi.

Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejlarida «KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TUTASHMALAR MAVZUSINI O’QITISH METODIKASI» mavzusini ta`limni texnik vositalari yordamida o’qitish metodikasi ishlab chiqildi. Kasb-hunar ta`limi jarayonini zamonaviy texnik vositalar va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o’quvchilarga berilayotgan materialning tez tushinib idrok qilishi barobarida auditoriyalardagi o’quvchilarning mavzuni puxta o’zlashtirishlarini ta`minlaydi.

1. Dars jarayonlarida qo’llaniladigan axborot texnologiyalari dars jarayonida berilayotgan o’quv materialini o’quvchilarning puxta o’zlashtirishiga yordam beradi, ularning fikrlash faoliyatini o’stiradi, har narsani bilishga ishtiyoq

uyg`otadi. Fahm-farosatli, mustaqil ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

2. Ta`limning texnik vositalari asosida tashkil etilgan dars mashg`ulotlariga naan`anaviy o’qitish metodlari qo’llanilsa dars yanada samarali va tushunarli bo’lib, dars jarayonida o’quvchilar faolligini sezilarli darajada oshiradi.

3. Ta`lim jarayonida faol o’qitish metodlari o’quv matenrialini egallash jarayonida o’quvchilarni fikrlash va bilish faoliyatiga undaydi.

4. Kollej ta`lim jarayonida axborot texnologiyalarining qo’llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu o’quvchilarning zamonaviy texnika vositalaridan unumli foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish, texnik ijodkorlik tafakkurlarini o’stiradi.

## TAVSIYALAR

**Tajriba-sinov ishlarining natijasidan quyidagilarni tavsiya etamiz:**

1. O’quv-biluv jarayonida guruh talabalarini tizimli tarzda tutashmalar mavzusini o’qitishning nazariy asoslari, turlari, qismlari haqidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirishga erishish.

2. Ta`lim jarayonida talabalarda geometirik chizmachilikka oid dastlabki ko’nikmalarni hosil qilish.

3. Barcha o’quv fanlaridan yaratiladigan dasturlar, darsliklar, o’quv qo’llanmalari va “O’qituvchi kitoblari”da tutashmaga oid ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan mashqlar, masalalar va ta`limiy topshiriqlarni izchil tizim asosida taqdim qilish.

4. Darsdan tashqari mashg`ulotlar, grafik ishlar, uy vazifalari sifatida tutashmalar yuzasidan topshiriqlar berish hamda qo’shimcha ijodiy topshiriqlar mazmunini ishlab chiqish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. I.A.Karimov. «O’zbekiston XXI-asr bo’sag`asida». Toshkent. O’zbekiston. 1998 y.

2. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori».

Toshkent. SHarq. 1998 y.

3. I.A.Karimov. «Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». Toshkent. 2009 y.

4. R.Movlonova va boshqalar. «Pedagogika». Toshkent. O'qituvchi. 2001 y.

5. N.G`aybullaev va boshqalar. «Pedagogika» Toshkent. 2000y.

6. O'.Tolipov. M.Usmonboeva. «Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot». Toshkent, "Fan".2005y.

7. I.A.Karimov. «Ta`lim samaradorligini oshirish yo'llari mavzusida seminar-trining materiallari». Toshkent. 2002 y.

8. Sh.U.Yo'ldoshev. «Mashinalar ishonchliligi va ularni ta`mirlash asoslari». Toshkent. O'qituvchi. 1994 y.

9. S.X.Yoqubov. Kasb ta`limi sifat bosqichida (maqolalar to'plami). Qarshi. Nasaf. 2003 yil.

10. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30-aprel 604 raqamli «Dehqon xo'jaligi to'g`risida»gi qonuni.

12. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26-avgust 692-11 raqamli «Fermer xo'jaligi to'g`risida»gi (yangi tahrirda) qonuni.

13. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25-dekabr O'RQ-136 sonli «Soliq kodeksi» qonuni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24-mart PF-3226 raqamli «Qishloq xo'jaligida islohotlarning chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g`risida»gi Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27-oktyabr PF3342 raqamli "2004-2006 yilda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsenratsiyasi to'g`risida"gi Farmoni.

16. Azizxo'jaev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent 2003 y.

17.Musaev R.S. «O'qitishning texnik vositalari» ma`ruza.

18. Davlatov K. «Mehnat va kasb-ta`limi nazariyasi hamda metodikasi» Toshkent. «O'qituvchi» 1992 y.

19. Murodov Sh.K. va boshqalar, Chizma geometriya, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2006.

20. Qulnazarov B.B., Chizma geometriya, Toshkent, «O‘zbekiston», 2006.

21. Raxmonov I.T. va Abdurahmonov A., Chizmachilikdan ma’lumotnoma, T., «A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi», 2005.

22. Raxmonov I.T., Chizmalarni chizish va o‘qish, Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.

23. Levitskiy V.S., i drugie, Mashinostroitelnoe cherchenie i avtomatizatsiya graficheskix rabot, Moskva, Vo‘sshaya shkola», 1998.

24. Abdurahmonov A., Chizmachilikdan grafik topshiriqlar tizimi, T., «Cho‘lpon», 2005.

25. Xorunov R.X., Akbarov A., Chizma geometriyadan masalalar va ularni yechish usullari, 2 nashri, Toshkent, «O‘qituvchi», 1995.

26. Yodgorov J.Yo. va boshqalar, Chizmachilik, Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.

27. Ismatullaev R.R., Chizma geometriya, Toshkent, «TDPU rizografi», 2003.

28. Mirdavidov M.M., Chizma geometriya va injenerlik grafikasi, Toshkent, «TDPU rizografi», 2000.

29. Valiyev A.N. va boshqalar, Geometrik Chizmachilik, Toshkent, «TDPU rizografi», 2008.

30.http: www.i-u.ru

31. http: www. Collegt/ru/

32. http: www. anriinten. com.

## ILOVALAR


R
R
R
R
A
R
B


R
R
C
R
R
R
D


A
90°
m
R
O


R
O
n
R1
O1


n
O
R
n1
а)
б)
R
n
O
n1
R
R
в)
г)
n1
R
R
n
O
R
д)
е)




ж)



з)




и)



к)



а)



б)



в)



а)


б)